

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARI BILAN MINTAQADA TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH BORASIDAGI HAMKORLIGI

Magistratura talabasi
Sadinov Mutalbek
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do‘stlik, tinchlik va xavfsizlik aloqalarini mustahkamlashga qaratildi. Bu beshta davlatlar tarixi, madaniyat, tili va dilining birligidan, tomirlarining tutashib ketganligidan kelib chiquvchi jiddiy siyosat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo‘li edi.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Hamdo‘stlik, MDH davlatlari, bojxona, chegara, BMT, YEXHT*

Markaziy Osiyo xalqlari ruhiyati asrlar moboynida bir-biriga tutashib, ma’naviy, madaniy va ahloqiy munosabatlari uyg‘unlashib ketgan, yashash tarzlari va urf-odatlarini mushtarak bo‘lib, yagona, ulkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondoshu-jondoshlik, bir butunlik an’analari tarkib topgan. Kishilik tarixida bunday ma’naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu diyorda hamisha hamma narsadan ustun kelgan. Mustaqillik sharoitida millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarining madaniy merosi, etnik muammolari, jug‘rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlar o‘zgardi.

Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixiy, o‘ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo‘shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi. 1993-yilning yanvarida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo‘stligiga asos solindi. Besh davlat – Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari hamdo‘stligi haqidagi bitimga imzo chekishdi. Hamdo‘stlikka a‘zo bo‘lgan mamlakatlar xalqaro huquq normalariga to‘la amal qilgan holda davlat tizimiga, boshqaruv usuliga va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlat Konstitutsiyasini hurmat qilish va tan olish faqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, bojxona va chegaralardagi sun’iy to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko‘rib chiqildi. [5]

BMT, YEXHT va MDX davlat rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvlarda Tojikistondagi vaziyatini normallashtirishga, uni tinch siyosiy yo'l bilan hal qilishga qaratilgan takliflarni o'rta tashladi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobeznisga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rta qo'ydi.[1]

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda hududiy joylashishi jihatidan ham yer osti va yer usti boyliklariga egaligi, xullas, iqtisodiy ko'lam va madaniy darajasi jihatidan ham alohida mavqega ega.[2] O'zbekiston Markaziy Osiyoda yaxlit iqtisodiy hududni vujudga keltirish va rivojlantirishga harakat qilmoqda.

O'zbekistonning xalqaro maydonida, siyosat sahnasida Markaziy Osiyodagi yetakchi hamda ko'zlangan maqsadlariga erisha olishi jihatidan imkoniyati keng, shu bilan birgalikda mazkur hududdagi tinchlik uchun javobgarlik yukini zimmasiga olgan davlat hamda ichki, beqiyos tabiiy resurslaridan foydalanish uchun shart-sharoiti yetarli hamkor sifatida dunyoning peshqadam mamlakatlari tan oldi. O'zaro hamkorlik tinchlik asosidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga kirishildi. Bu albatta, O'zbekiston uchun muhim taraqqiyot omili, istiqboli parloq xatti-harakat edi.[4]

Bugungi kunga qadar O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasini, balki butun dunyo Yer kurrasining eng xavfli hududi va imkoniyatga so'ngsiz kulfatlar keltiruvchi asrimiz vabosi – terrorizmdan ham ogoh qilib keldi. Bundan tashqari 2000 yilning 19 oktabrida Toshkentda "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, narkotik moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terorizmga qarshi kurashga yondoshish" mavzuda xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. [5] Anjumanda mashhur olimlar, ekspertlar nutq so'zladi. Konferensiya qatnashchilari Toshkent Deklaratsiyasini qabul qildi. Shuningdek, 2000 yilning 1 dekbrida MDH davlatlari rahbarlari kengashining Minskda bo'lib o'tgan O'zbekiston, Rossiya va Tojikiston Prezidentlari ishtirokida uch tomonlama muloqatda ham mintaqada tinchlikni saqlash borasida O'zbekistonning o'z qarash va yondoshuvlarini bayon etildi.

2001 yilning 15 iyun kuni Shanxay sammitiga tashrif buyurgan deklaratsiyaning kengaytirilgan tartibdagi muzokaralari bo'lib o'tdi. Bugungi kunda o'z mustaqil tashqi siyosatini konstitutsiyaviy qoidalariga tayanib yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarining to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahlil qilmaslik, chegaralarning daxlsizligini, nizolarni teng yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning

ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqining umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. [3]

O'zbekiston hukumatining chuqur hayotiy reallikka asoslangan uzoqni ko'zlab olib borayotgan oqlona tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy rivojlanish, tinchlik va barqarorlikni qaror toptirish, bu hududlardagi urush harakatlari va mojarolarini tinch yo'l bilan bartarf etishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlari va boshqa ko'plab xalqaro masalalar, muammolar xususidagi o'z qarashlari, taklif-tavsiyalari uning jahon miqyosidagi nufuzining ko'tarilib borishi imkoniyatini bermoqda.

O'zbekistonning mintaqa osoyishtaligini taminlashdagi harakatlarida MDH malakatlari bilan bo'lgan o'zaro aloqalar ham alohida o'rin tutadi. O'zbekiston, Qozog'iston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon tashkil etish haqida imzolangan shartnoma Markaziy Osiyo integratsiyasi yo'lida ilk qadam edi. 1998 yil bu shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi. Hamdo'stlik dasturlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan.

2000 yil 20-21 aprel kunlari O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining Toshkentda siyosiy va diniy ekstrimizmga qarshi, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidan birgalikdagi harakatlar to'g'risidagi shartnoma bunga misol bo'la oladi. [6]

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchlik va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur. Ularning bu yo'ldagi sa'y-xarakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimdir.

Markaziy Osiyo davlatlarida barqaror yillik iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda. Ilgari asosan xomashyo yetishtirishga ixtisoslashgan mintaqamiz mamlakatlari iqtisodiyotida hozir sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi ortmoqda. Bunday sharoitda transport quvvatlari iqtisodiy o'sish sur'atlariga mos, hatto taraqqiyot bobida undan biroz oldinda bo'lishi kerak.

O'zbekiston transport kommunikatsiyalari bo'yicha o'ttizdan ziyod xalqaro konvensiya, bitim va shartnomaga qo'shilgan, transport kommunikatsiyalarini integratsiyalashtirish bo'yicha qator xalqaro dasturlarda ishtirok etmoqda, so'nggi yetti yil ichida iqtisodiyotning bu muhim tarmog'iga 550 million AQSH dollari miqdorida xorij sarmoyasi kiritildi.

Bu sa'y-harakatlar ichki transport tizimi bilan bir qatorda mintaqadagi xalqaro transport yo'llarini rivojlantirishga xizmat qilayotgani bilan ham muhimdir. Hozir O'zbekiston hududi orqali yigirmata xalqaro transport yo'li o'tgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida avtomobil yo'llarining uzunligi 320 ming, temir yo'llarniki 20 ming, neft-gaz quvurlariniki 40 ming kilometrdan oshgan. Mintaqamiz davlatlarida yuzdan ziyod aeroport bo'lib, ularning yigirmatasi xalqaro havo darvozasi sanaladi. Yillik yuk tashish ko'rsatkichi 4 milliard tonnaga yaqin edi. [5]

Umuman olganda, xalqaro muloqotda va muomalada bo'lish har bir mamlakat, har bir xalq uchun ijtimoiy zaruriyatdir. Shu bois O'zbekiston, o'zbek xalqi qadimdan boshqa mamlakatlar, xalqlar bilan aloqada, muomalada bo'lib keldi. Mustaqillik butun dunyo bilan aloqalarni, hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, mazmunan boyitishga katta imkoniyat yaratdi. Har bir mamlakatning jahon hamjamiyati bilan aloqasi va xalqaro nufuzi avvalo, uning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

O'zbekistonning tashqi siyosiy hamkorligi yangilanish va taraqqiyot yo'nalishlarining bir butunligini aks ettiradi. O'zbekiston diplomatiyasining muhim yo'nalishi Markaziy Osiyodagi davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashdir. O'z ma'naviyati, turmush tarzi, iqtisodiy jihatdan qon-qardosh hisoblangan, tarixiy ildizi va taqdiri umumiy bo'lgan shu mintaqa xalqlarining teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorligini yildan yilga rivojlanib bormoqda.

Xullas, O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tinchlik va kollektiv xavfsizlikni saqlash shu mintaqadagi mamlakatlar salohiyatini birlashtirish, o'zaro hamjamiyatlikni mustahkamlash borasidagi harakatlari jahonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish uchun o'ta muhimdir.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillari tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; shu hududdagi davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Абусеитова М.Х. История "Центральной Азии: концепции и реальность" SHYGYS.-Алматы, 2005.№ 1. С.3.
2. Касымов А., Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Т.: Ўзбекистон. 1994;
3. Касенов У.Т. Безопасность Центральной Азии. Глобальные, региональные и национальные проблемы. – Алматы, 1998;
4. "Ўзбекистон овози" газетаси. 2001 йил, 27 ноябр.
5. "Халқ сўзи" газетаси. – 1993. – 5 январ.
6. Ҳамкорлик тараққиётнинг муҳим омили. // Халқ сўзи, 2008, 11 март.